XALQ DEPUTATLARI JALAQUDUQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 9-aprel VII-16-25-1-21-K/26 Jalaquduq tumani

Jalaquduq tumani bo`yicha “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig`imlarning cheklangan stavkalarini belgilash to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to`g`risida”gi O`RQ-1105-sonli Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta`minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar” to`g`risidagi 387-sonli qarori 2-xatboshi “v”-bandida xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig`imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma`lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun tuman hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig`imlarning miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag`allikni qisqartirish masalalari bo`yicha birinchi o`rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo`limi boshlig`i (A.Abdujabbarov), tuman iqtisodiyot va moliya bo`limi boshlig`i o`rinbosari

(O.Ashurov) hamda tuman soliq inspeksiyasi boshlig`i (A.Sobirov) bilan birgalikda mazkur qaror o`z vaqtida va samarali bajarilishini ta`minlash choralarini ko`rsin.

4. Mazkur qaror O`zbekiston Respublikasining “Normativ-xuquqiy xujjatlar to`g`risida”gi Qonunining 40-moddasiga asosan rasmiy e`lon qilingan kundan e`tiboran uch oy o`tgandan keyin kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jalaquduq tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo`yicha doimiy komissiyasi (E.Qurbonov) hamda tuman hokimining birinchi o`rinbosari (A.Abdujjabarov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **XAITAXUNOV SHUKUR DJALILOVICH**

Xalq deputatlari Jalaquduq tumani
Kengashining
2026-yil 9-apreldagi
VII-16-25-1-21-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig`imlar stavkalari

Yig`im turi	Bir oyga (so`mda)	
	O`RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	**2026-yil uchun to`lanadigan yig`im miqdori**
“Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig`im	300 000	360 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig`im	150 000	180 000